



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH JARAYONINING MAZMUNI

Sharipova Sh.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif fakulteti fakultetlararo pedagogika kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda oliy ta'lif muassasalarida kredit-modul tizimini tadbiq etish hamda talabalarning erishilgan ko'nikma va malakasini erkin tan olinishini ta'minlash asosida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlari aniqlangan.

Аннотация. В статье определяются педагогические возможности инновационных технологий, используемых на основе внедрения кредитно-модульной системы в высших учебных заведениях и обеспечения свободного признания приобретенных навыков и квалификации студентов.

Abstract. In this thesis, the pedagogical possibilities of innovative technologies used on the basis of implementing the credit-module system in higher education institutions and ensuring the free recognition of students acquired skills and qualifications are determined.

Tayanch so'zlar: Yevropa Transfer kredit-modul tizimi, innovatsion texnologiyalar, o'quv rejisi, oliy ta'lif tizimi.

Ключевые слова: Европейская модульная система кредитных переводов, инновационные технологии, учебный план, система высшего образования.

Keywords: European modular credit transfer systems, innovative technologies, higher education, curriculm.

Oliy ta'lif muassasalari aslida talabalarni hayotga tayyorlash va ularga turli sohalarda o'zini sinab ko'rishi va ichki iqtidorini namoyon qilishi uchun imkoniyat beruvchi dargoh hisoblanadi. Oliy ta'lif muassasasi talabalarni yillar davomida o'qitish, bilimini oshirish bilan birga ularni turli faoliyat turlariga yo'naltirishi, o'z istaklariga erishishga yordamlashishi lozim. Biroq bugungi kunda mamlakatimizda joriy qilingan oliy ta'lif tizimi juda keng maqsad yo'lida harakat qiladi. Talabalarga ma'lum bir axborotlar bazasini yodlatish, shaxs sifatida esa intizomli va itoatkor qilib tarbiyalashga urinadi. Shuning uchun ham oliy ta'lif bitiruvchilarining aksariyati bilimli bo'lishgani bilan kreativ, vaziyatga moslashuvchan, yangicha fikrlovchi kadr bo'la olishmaydi. Ular topshiriqni to'g'ri, aniq va o'z vaqtida bajaruvchi bo'lishlari mumkin, lekin innovator bo'la olishmaydi. Shu bois bugungi zamon talablaridan kelib chiqqan holda bo'lajak o'qituvchilarni novator shaxslar sifatida tarbiyalashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim hisoblanadi. 2020-2021 o'quv yilidan boshlab respublika oliy ta'lif muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish tartibi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi"ga ko'ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tishi rejalashtirilgan. Unga ko'ra, universitetda o'tiladigan har bir fan endilikda undagi o'qish



yuklamasi miqdoriga qarab, kreditlarda aks etadi. Masalan, har bir fan o'rtacha 5, 6 yoki 7,5 kreditlarda aks etishi mumkin. Talaba esa har semestr, o'quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to'plab borishi mumkin va bu miqdorga qarab, unga bakalavr yoki magistr darajasi beriladi.

ECTS – Yevropa Kredit Transfer Tizimi 1989 yilda asos solingen bo'lib, Yevropa davlatlari tomonidan ishlab chiqilgan, tekshirilgan va takomillashtirilgan kreditlarni taqsimlash tizimidir. ECTS tizimida talaba olgan bilimining bahosini bir davlatdan (OTMdan) ikkinchi davlatga (OTMga) erkin ko'chishini, erishilgan ko'nikma va malakasini erkin tan olinishini, pirovardida barchasini hisobga olib daraja (diplom) olishini nazarda tutuvchi tizimdir. ECTS tizimida ta'lim olishning barcha turlari (kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy) va o'quv yuklamasining barcha ko'rinishlari (ma'ruza, amaliyat, laboratoriya v.h) uchun qo'llanilishi mumkin.

ECTS kredit-modul tizimida bir yillik kreditlar miqdori 60 ni tashkil etadi. Bir o'quv yili 2 semestrdan iboratligini hisobga olsak, talaba o'qishi davomida har semestrda 30 kredit to'plab borishi kerak bo'ladi. Bakalavr dasturi odatda 4 yilligi hisobga olinsa, talaba ushbu darajani qo'lga kiritish uchun jami 240 kredit, magistratura dasturini tugallash uchun esa 120 kredit to'plashi talab etiladi.

O'quv jarayoni o'quv va nazorat tadbirlari majmuini o'z ichiga oladi. O'quv tadbirlarida barcha turdag'i auditoriya mashg'ulotlari, amaliyat va mustaqil ishlarning tashkil etilishi nazarda tutiladi. Nazorat tadbirlari ta'lim oluvchilarining o'quv rejasidagi tegishli fanlar bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishini va ularning natijalarini baholashni nazarda tutadi. ECTS kredit-modul tizimida talabaning bilim olish vaqt tushunchasi dars vaqt tushunchasi bilan cheklanib qolmasdan, talaba o'qish uchun sarflagan umumiy vaqt bilan o'lchanadi. Unda bilimning manbai faqat o'qituvchi yoki auditoriya emasligiga ishora qilinadi. Qisqacha aytganda, kredit-modul tizimida o'qish vaqt tushunchasiga o'qituvchi nuqtai nazaridan emas, balki talaba nuqtai nazaridan yondashiladi.

Talabaning o'qish yuklamasining bu tarzda taqsimlanishi talaba ta'lim olish jarayonida mas'uliyatni ma'lum darajada o'z yelkasiga olishi, fan bo'yicha darsda va darsdan tashqarida muntazam ravishda o'qib borishi kerakligini ham bildiradi. Shuning uchun kredit-modul tizimiga o'tish o'qituvchilarining ish yuklamalarini ham qayta ko'rib chiqishni, ularning ish yuklamalari ular o'qitadigan fan kreditlaridan kelib chiqqan holda belgilanishini taqozo etadi. Amaldagi tizimda esa o'qituvchilar ish yuklamasi faqat auditoriya soatlariga bog'lab qo'yilgan. Talabaning o'qish yuklamasi bu tarzda — auditoriya va mustaqil o'qish soatlariga ajratilishi OTMlar kutubxonalarida sharoitlarni yaxshilash, sifatli o'quv qo'llanmalari ko'lami ni yanada kengaytirishni ham taqozo etadi.

Kredit-modul tizimiga o'tishning muhim jihatlaridan yana biri bu – o'quv dasturiga tanlov fanlarining kirib kelishidir. Unga ko'ra, talabalar o'qishning dastlabki yillarida sohaga oid asosiy, umumkasbiy fanlarni o'zlashtirib, soha bo'yicha umumiy bilimni egallab olganlaridan so'ng, sohaga oid maxsus fanlarni o'z qiziqishlaridan kelib chiqib o'zlarini tanlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda OTM talabalarga o'quv yili davomida taklif qilinayotgan tanlov fanlarning ro'yxatini va ular haqida batafsil ma'lumot taqdim etadi. Talabalar esa ushbu ro'yxat va ma'lumotlar asosida o'zlarini qiziqqan fanlarni tanlaydilar. Bu jarayon har bir talaba o'zining bakalavriat yoki magistratura o'qish dasturini ma'lum ma'noda o'zi shakllantirishiga imkon yaratadi. Ya'ni, guruhda 50 nafar talaba bo'lsa, ularning har biri o'z qiziqishlariga ko'ra o'z o'qish dasturlariga ega bo'lishadi.



Kredit-modul tizimida tanlov fanlari soni kursdan kursga ko‘payib borishi zarur bo‘ladi. Chunki talaba kursdan kursga o‘tgani sari mutaxassis sifatida shakllanib boradi va unda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ham shakllanib boradi. OTMlar esa asta-sekinlik bilan talabalarga o‘z fakultetlaridan tashqarida, ya’ni boshqa fakultetlardan ham tanlov fanlari olishga imkoniyat yaratishlari zarur. Oliy pedagogik ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va uni rivojlantirish, mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi. Bo‘lajak o‘qituvchining chuqur bilimga, samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo‘lishi ma’lum fan asoslari borasida unda yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarning, ta’lim jarayonida yangiliklardan unumli foydalanish malakasining qanchalik shakllanganligiga bog‘liqdir.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni. www.lex.uz
2. Muslimov N.A., M.T.Mirsoliyeva, G.N.Ibragimova, J.Ishmuhammedov, A.B.To‘rayev. Pedagogning innovatsion faoliyatini rivojlantirish. O‘quv –uslubiy majmua. Toshkent – 2019. B. 42